https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muallif: **Musajonov Nurillo Mansurbek o'gli**
Qo'qon universiteti andijon filiali
Davolsh ishi yo'nalishi 24-11 guruh talabasi

SURUNKALI GEPATIT B DAVOLASH PROFILAKTIKASI

Annotatsiya. Surunkali gepatit B — bu gepatit B virusi bilan uzoq muddatli infeksiya natijasida jigar to'qimalarining yallig'lanishi bilan kechadigan kasallikdir. Kasallik odatda virus bilan yuqtirgandan so'ng 6 oydan ortiq davom etuvchi infeksiya holatida rivojlanadi. Surunkali gepatit B butun dunyoda sog'liqni saqlash uchun muhim muammo bo'lib, jigar sirrozi va gepatosellyulyar karsinoma (jigar saratoni)ning asosiy sabablaridan biridir.Klinik belgilari ko'pincha sust kechadi: umumiy holsizlik, ishtaha yo'qolishi, qorinda og'irlik, ko'ngil aynishi, ba'zan sariqlik kuzatiladi. Bemorlarning ko'pchiligida kasallik simptomsiz kechib, faqat laborator tahlillar orqali aniqlanadi. Tashxis qo'yishda serologik markerlar muhim ahamiyatga ega.Davolashning asosiy maqsadi — virus replikatsiyasini to'xtatish, jigar shikastlanishini kamaytirish va asoratlarning oldini olishdir. Buning uchun interferonlar va nukleozid analoglari qo'llaniladi. Shuningdek, bemorlar sog'lom turmush tarzini olib borishlari, spirtli ichimliklardan voz kechishlari hamda muntazam nazoratda bo'lishlari zarur.Profilaktika choralari ichida eng samaralisi — gepatit B ga qarshi emlash bo'lib, bu kasallikning oldini olishda yuqori darajada himoya beradi.

Абстракт. Хронический гепатит В — это заболевание, характеризующееся воспалением печёночной ткани в результате длительной инфекции вирусом гепатита В (ВГВ). Заболевание обычно развивается после инфицирования вирусом более 6 месяцев. Хронический гепатит В представляет собой серьёзную проблему здравоохранения во всём мире и является одной из основных причин цирроза печени и гепатоцеллюлярной карциномы (рака печени). Клинические симптомы часто слабо выражены: наблюдаются общая слабость, потеря аппетита, боли в животе, тошнота, иногда желтуха. У

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

большинства пациентов заболевание протекает бессимптомно и выявляется только лабораторно. Серологические маркеры играют важную роль в диагностике. Основная цель лечения — остановить репликацию вируса, уменьшить повреждение печени и предотвратить осложнения. Для этого используются интерфероны и аналоги нуклеозидов. Пациентам также следует вести здоровый образ жизни, избегать употребления алкоголя и регулярно проходить профилактические осмотры. Наиболее эффективной профилактической мерой является вакцинация против гепатита B, которая обеспечивает высокий уровень защиты от заболевания.

Abstract. Chronic hepatitis B is a disease characterized by inflammation of the liver tissue as a result of long-term infection with the hepatitis B virus (HBV). The disease usually develops after infection with the virus for more than 6 months. Chronic hepatitis B is a major health problem worldwide and is one of the main causes of liver cirrhosis and hepatocellular carcinoma (liver cancer). Clinical symptoms are often mild: general weakness, loss of appetite, abdominal pain, nausea, and sometimes jaundice are observed. In most patients, the disease is asymptomatic and is detected only through laboratory tests. Serological markers are important in diagnosis. The main goal of treatment is to stop viral replication, reduce liver damage, and prevent complications. Interferons and nucleoside analogues are used for this. Patients should also lead a healthy lifestyle, avoid alcohol, and undergo regular checkups. The most effective preventive measure is vaccination against hepatitis B, which provides a high level of protection against the disease.

Kalit so‘zlar: Surunkali gepatit B, gepatit B virusi, , jigar yallig‘lanishi, jigar sirrozi, gepatosellyulyar karsinoma, , virus replikatsiyasi, antiviral davolash, interferon, tenofovir, entekavir, profilaktika, emlash, jigar yetishmovchiligi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords: Chronic hepatitis B, hepatitis B virus, , liver inflammation, liver cirrhosis, hepatocellular carcinoma, , viral replication, antiviral treatment, interferon, tenofovir, entecavir, prevention, vaccination, liver failure.

Ключевые слова: Хронический гепатит В, вирус гепатита В, воспаление печени, цирроз печени, гепатоцеллюлярная карцинома, репликация вируса, противовирусное лечение, интерферон, тенофовир, энтекавир, профилактика, вакцинация, печеночная недостаточность.

Kirish

Gepatit B kasalligi faqat bemorning biologik materiallari bilan aloqa qilish orqali yuqishi mumkin. Ko'p hollarda infektsiya bemor uchun sezilmay kechadi, shuning uchun kasallik laboratoriya tahlillari natijasida yoki xususiyatli belgilari namoyon bo'lgan paytda aniqlanadi. O'z vaqtida davolangan odamlar gepatit B kasalligidan butkul sog'ayib ketadi va o'zlarida ushbu kasallikka qarshi barqaror immunitet shakllantirishadi. Gepatit B bu virusli kasallik bo'lib, virus organizmga tushganda hayotiy zarur bo'lgan ichki organlarga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Ushbu kasallik tufayli eng ko'p jigar shikastlanadi, uning shikastlanishi mikro-hujayrali darajada bo'ladi. Gepatit B alomatlarsiz kechishi yoki aniq belgilar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Surunkali bosqichiga o'tganda, ushbu virusli infektsiya ko'pincha jigar sirrozi va saratoni rivojlanishiga olib keladi.Dunyoning barcha mamlakatlarida ko'p yillar davomida ushbu kasallik statistikasi olib borilmoqda, natijalari esa maxsus ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi:Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda aniqlangan o'tkir gepatit B 90% hollarda surunkali bosqichga o'tadi;Normal immunitetli yoshlarda gepatit B ning o'tkir shakli juda kamdan-kam hollarda surunkali bosqichga o'tadi — faqat 1% hollarda.Katta yoshdagi kishilarda aniqlangan o'tkir B guruh gepatitlari 10% hollarda surunkali bosqichga o'tadi. B guruh gepatitiga qarshi emlash olgan kishilar ushbu kasallik uchun immunitet rivojlantiradilar:

Birinchi emlashdan so'ng — bemorlarning 50% ida;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ikkinchi emlashdan so’ng — bemorlarning 75% ida;

Uchinchi vaktsinani kiritgandan so’ng — 100% bemorlarda.

Gepatit B kasalligining surunkali shakli bolalarda tashxislanadi:

1 — 5 yoshli bolalarda — 25% -50% hollarda;

Tug’ilish davrida infektsiyalangan chaqaloqlarda — 90% hollarda.

B guruh gepatiti quyidagicha tasniflanadi:

Yashin tezligida. Gepatitning eng tezkor shaklida bemorlarda bir necha soat ichida miya shishishi yuz beradi va bemor komaga tushadi. Ko’p hollarda, bemorlarning hayoti ushbu turdagi gepatit klinik bosqichga o’tganda qisqa muddat ichida fojiali yakun topadi.

O’tkir. Gepatit B ning o’tkir shaklida bemorlarda ushbu kasallikning bir necha bosqichlari kuzatiladi. Dastlab, asosiy alomatlar namoyon bo’ladi, undan keyin bemorlarning terisi sariq rangga kiradi. Gepatitning B o’tkir shaklining so’nggi bosqichi jigar yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi.

Surunkali. Gepatit B virus inson tanasiga kirgandan so’ng 1-6 oy o’tib surunkali bosqichga o’tadi. Ushbu bir necha oy virusning inkubatsiya davri bo’lib, undan so’ng o’ziga xos alomatlar va belgilar paydo bo’la boshaydi. Gepatit B ning namoyon bolishi virus bemorning tanasiga kirganidan so’ng, gepatitning inkubatsiya davri boshlanadi, bu o’rtacha 15 dan 90 kun davom etadi, lekin 6 oygacha cho’zilishi mumkin. Gepatitning o’tkir shakli quyidagicha kechishi mumkin:

- O’tkirlashish bosqichi;
- Uzoq muddatli kasallik;
- Retsidivlar;
- Kamdan kam hollarda — koma.

Gepatit B kech bosqichlarda tashxis qo’yilgan bo’lsa yoki kasallik o’z vaqtida davolanmagan bo’lsa, natijasi aniq: jigar sirozzi yoki gepatotsellyulyar saraton. Bunday toifadagi bemorlar, shuningdek, gepatit B ning boshqa jiddiy oqibatlariga bilan to’qnashishi mumkin:Miokardit (yurak muskullarining

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yallig'lanishi). Artrit, artroz va boshqa bo'g'im kasalliklari. Qon tomirlari va buyrak kasalliklari va boshqalar.Bunday asoratlar oqibatida o'limga olib keladigan xavf sezilarli darajada oshadi. Hozirgi vaqtda davlat darajasida gepatit B ga qarshi majburiy emlashga muhtoj insonlar toifasi ro'yxati tasdiqlangan. Maktab o'quvchilari va talabalar. Bolalar bog'chalari o'quvchilari. Bemorlarning biologik materiallari bilan aloqa qilishlari mumkin bo'lgan sog'liqni saqlash xodimlari. Gemodializga muhtoj bemorlar. Vena ichiga inyeksiyaga muhtoj bemorlar. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida hukm o'tayotgan shaxslar. Gepatitning surunkali shaklidan aziyat chekayotgan bemorning olia a'zolari va yaqinlari. Tartibsiz jinsiy aloqa qiladigan odamlar. Bu kasallikning epidemiyasi qayd etilgan aholi punktlariga safarlarni rejalashtirgan sayyohlar.

Sabablari

B guruh gepatiti rivojlanishining sababi bu kasallik qo'zg'atuvchisi — virusning inson organizmiga kirishidir. Kasallik ayniqsa bir qator salbiy omillar (alkogol, nikotin, kimyoviy va zaharli moddalar, dorilar) ta'sirida zaiflashgan immunitetli kishilarda ko'p uchraydi. Immunitetga shuningdek boshqa kasalliklar ham ta'sir qiladi, bu tanadagi metabolik buzilishlar, vitamin va minerallarning yetishmasligi tufayli yuz beradi.

Gepatit B bilan og'rigan insonlar ijtimoiy izolyatsiyada bo'lmasligi kerak, chunki bu virus havo-tomchi yo'llari orqali yuqmaydi. Kasal odam bilan aloqada bo'lgan har qanday kishi zarur choralarni va shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishi kerak. Ko'p yillar butun dunyo bo'ylab olib borilgan tadqiqotlar natijasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu kasallikning kechishi bemorning qanday infektsiyalanganligiga, shuningdek, uning yoshiga bog'liq. Agar bemor gepatit B bilan tabiiy yo'l (masalan jinsiy aloqa paytida) orqali zararlangan bo'lsa, bu holatda kasallik surunkali bosqichga o'tishi xavfi yuqori bo'ladi. Gepatitning bu shakli ko'pincha yoshlarda paydo bo'ladi, chunki ular sog'lig'iga jiddiy e'tibor bermaydilar va organizmning tashvishli signallariga javob choralari ko'rmaydilar. Gepatit B virusi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

inson organizmiga faqat bemorning biologik materiallari bilan aloqa qilish orqali kirishi mumkin:

- **Jinsiy yo'l orqali**. Gepatit B virusi nafaqat qonda, balki organizmning barcha suyuqliklarida (shu qatorda qin ajralmalari va erkak spermasida) mavjud, shuning uchun himoyalanmagan jinsiy aloqa kasallik yuqishi xavfini oshiradi;
- **So'lak orqali**, chuqur o'pishish bilan. Agar kishi tilida kesilgan yoki jarohatlangan sohalar bo'lsa, kishi o'pishganda gepatit B virusini yuqtirib olishi mumkin;

Qon orqali. Bu infeksiyaning eng keng tarqalgan yo'llaridan biri hisoblanadi. Ko'p bemorlar gepatit B bilan nosteril shpritslar ishlatish va qon quyish orqali kasallanganlar. Bemorning infektsiyalangan biologik materiali bilan aloqa qilish tegishli sanitariya choralari o'tkazilmaydigan go'zallik salonlarida yuqishi ham mumkin.

Tug'ruq jarayonida, agar ona gepatit B tashuvchisi bo'lsa. Bemor ayollarda homiladorlik asoratlarsiz kechishiga qaramay, tug'ruq paytida bola onaning biologik materiallari bilan bevosita aloqada bo'ladi va shuning uchun yuqori ehtimollik bilan kasallanishi mumkin. Ushbu kasallikning rivojlanishining oldini olish uchun gepatit B bilan kasallangan onadan tug'ilgan chaqaloqlar tug'ilgandan so'ng darhol emlanadilar.

Gepatit B virusi agressiv harorat rejimlari, kislotalar va ishqorlar sharoitida yuqori chidamlilikka ega. Virus uzoq vaqt davomida qurib qolgan qonda saqlanishi mumkin, bu esa asbob-uskunalar, ham tibbiy, ham manikyur, ham sartarosh asboblaridir. Shu sababli, har bir inson juda ehtiyotkor bo'lishi va tegishli muassasalarga tashrif buyurganda, xavfsizligi uchun barcha zarur choralarni ko'rishi juda muhimdir. Alomatlari va belgilari. Gepatit B bilan og'rigan bemorlarning ko'pchiligida uzoq vaqt bu kasallikning alomatlari kuzatilmaydi. Virusni faqat tibbiy ko'rik yoki homiladorlik uchun ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan laboratoriya qon tahlillari o'tkazilishida aniqlash

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mumkin. Bunday hollarda maxsus tahlil — «avstraliyalik antigenni» aniqlash uchun qon tahlili amalga oshiriladi.

Inson organizmida rivojlanayotgan gepatit B tashqi belgilarni namoyon qilganda bemorlarda quyidagi alomatlar kuzatilishi mumkin:

- Ko’ngil aynishi;
- Bosh aylanishi;
- Charchoq;
- Rinit;
- Tana haroratining ko’tarilishi (odatda harorat 39-40 °C ga yetadi);
- Yo’tal;
- Umumiy zaiflik;
- Burun-halqumdagi og’riq hissi;
- Kuchli bosh og’riqlari;
- Teri rangining o’zgarishi (sariqlik);
- Shilliq qavat, ko’z skleralari, kaftlarning sarg’ayishi;
- Siydik rangining o’zgarishi (u ko’pira boshlaydi, rangi qora pivo yoki achchiq choy rangiga o’xshaydi);
- Bo’g’imlardagi og’riq
- Ishtahani yo’qolishi;
- Axlatning rangi o’zgaradi (rangsizlanadi, oqimtir tus oladi);

Kasallikka qarshi emlash. Gepatit B bilan kasallanishni oldini olish uchun odamlarga o’z vaqtida vaktsina olish tavsiya etiladi. Maxsus ishlab chiqilgan emlash ma’lum bir harorat sharoitida saqlanishi kerak. B guruhi gepatitiga qarshi emlash faqat mushak ichiga kiritiladi. Emlash paytida inyektsiya teri ostiga yuborilgan bo’lsa, u hisobga olinmaydi va bemorga qayta inyektsiya qilish kerak. Vaktsinani barcha odamlar olmaydi, chunki ba’zi bir qarshi ko’rsatmalar mavjud. Oziq-ovqatga allergiyasi bo’lgan odamlar, homilador ayollar, emizikli onalar, muddatidan oldin tug’ilgan chaqaloqlarshular jumlasidan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tashxis qoyish

Agar biror kishi gepatit B rivojlanishini ko’rsatadigan alomatlarni aniqlasa yoki ushbu kasallik bilan kasallangan bo’lishi mumkinligiga asos bo’lsa, u darhol tibbiy muassasaga tashrif buyurishi kerak. Qabul vaqtida mutaxassis jigarni palpatsiya yordamida tekshirish va kasallik anamnezini yig’ish bilan birlamchi tashxis qo’yadi. Birlamchi tashxisni tasdiqlash yoki rad etishga qon va siydikning laborator tahlillari yordam beradi. Ko’pincha, gepatit B kasalligi ehtimoli mavjud bo’lgan bemorlar immunogramma deb ataladigan klinik-laborator tekshiruvdan o’tkaziladi, buning natijasida nafaqat organizmning bu kasallikka qanday munosabatda bo’lishini o’rganish, balki yaqin kelajakda kasallik o’zinin qanday tutishini ham aniqlash ham mumkin. Ushbu yuqumli virusli kasallikning genetik materiallarini aniqlash va replikatsiya tezligini o’rganish uchun shifokor qo’shimcha analiz — PZR ni belgilashi mumkin. Kasallik og’ri kechayotgan bo’lsa, shifokor gepatit B fonida rivojlanayotgan asoratlardan shubha qilsa, bemorlarda jigar biopsiyasi qilinadi. Ushbu tahlil yordamida jigar tuzilishi qanchalik o’zgarganligi va uning hujayralari saratoni mavjudligi aniqlanadi. Davolashda esa Ko’pincha, gepatit B kasalligi ehtimoli mavjud bo’lgan bemorlar immunogramma deb ataladigan klinik-laborator tekshiruvdan o’tkaziladi, buning natijasida nafaqat organizmning bu kasallikka qanday munosabatda bo’lishini o’rganish, balki yaqin kelajakda kasallik o’zinin qanday tutishini ham aniqlash ham mumkin. Ushbu yuqumli virusli kasallikning genetik materiallarini aniqlash va replikatsiya tezligini o’rganish uchun shifokor qo’shimcha analiz — PZR ni belgilashi mumkin. Kasallik og’ri kechayotgan bo’lsa, shifokor gepatit B fonida rivojlanayotgan asoratlardan shubha qilsa, bemorlarda jigar biopsiyasi qilinadi. Ushbu tahlil yordamida jigar tuzilishi qanchalik o’zgarganligi va uning hujayralari saratoni mavjudligi aniqlanadi.

Xulosa

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shunday qilib, surunkali gepatit B ni erta aniqlash, muntazam monitoring, zamonaviy davolash va profilaktika tadbirlarini samarali yo‘lga qo‘yish — jigar sog‘lig‘ini saqlash, asoratlarni kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashda eng muhim omillardandir. Tashxis qo‘yishda serologik markerlar va molekulyar diagnostika usullarining qo‘llanilishi, bemor holatini erta aniqlash va to‘g‘ri davolash strategiyasini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy antiviral preparatlar – interferonlar va nukleozid/nukleotid analoglari (tenofovir, entekavir) – virus replikatsiyasini samarali nazorat qilish, jigar faoliyatini saqlab qolish va asoratlarning rivojlanishini sekinlashtirish imkonini beradi. Kasallikka qarshi kurashda profilaktika choralarining, ayniqsa, keng ko‘lamli emlash dasturlarining ahamiyati beqiyosdir. Emlash orqali gepatit B infeksiyasining oldini olish, nafaqat individual, balki jamoaviy immunitetni shakllantiradi va kelajak avlodlarda bu kasallikning tarqalishini sezilarli kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). *Hepatitis B: Key Facts*. Geneva: WHO, 2024. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hepatitis-b
2. European Association for the Study of the Liver (EASL). *EASL 2017 Clinical Practice Guidelines on the Management of Hepatitis B Virus Infection. Journal of Hepatology*, 2017; 67(2): 370–398.
3. Lok, A. S. F., & McMahon, B. J. *Chronic Hepatitis B: Update 2019. Hepatology*, 2019; 67(4): 1560–1599.
4. Terrault, N. A., et al. *Update on Prevention, Diagnosis, and Treatment of Chronic Hepatitis B: AASLD 2023 Practice Guidance. Hepatology*, 2023; 78(1): 122–146.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. *Virusli gepatitlar profilaktikasi va davosi bo‘yicha klinik protokollar.* Toshkent, 2022.
6. Abdukarimov A., Raximova N., & To‘xtaboev S. *Infeksion kasalliklar.* – Toshkent: “Ibn Sino” nashriyoti, 2021.
7. Papatheodoridis, G. V., et al. *Optimal Management of Chronic Hepatitis B Infection: Challenges and Future Directions. Liver International*, 2022; 42(3): 463–475.
8. Lavanchy, D. *Hepatitis B Virus Epidemiology, Disease Burden, Treatment, and Current and Emerging Prevention and Control Measures. Journal of Viral Hepatitis*, 2021; 28(6): 882–896.